

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 165 (1764), 2026-yil 15-avgust, shanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



SUD-HUQUQ TIZIMI YANADA TAKOMILLASHTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 14-avgust kuni sud-huquq islohotlarining natijalari va sohadagi ustuvor vazifalarni muhokama qilish yuzasidan sud tizimi rahbarlari bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Muloqotda sudlar faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirishga qaratilgan “Odil sudlov — 2030” strategiyasi loyihasi taqdimot qilindi.

So‘nggi yillarda sud hokimiyati mustaqilligini mustahkamlash, inson huquqlarini sud orqali himoya qilish va odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, aholi murojaatlari va sud amaliyoti tahlili tizimda yechimini kutayotgan masalalar mavjudligini ko‘rsatdi.

Shu munosabat bilan islohotlar natijasi, avvalo, fuqaroning sudga ortiqcha ovoragarchiliksiz murojaat qilishi, buzilgan huquqi o‘z vaqtida tiklanishi va qabul qilingan qarorning adolatlari ekaniga ishonch hosil qilishida namoyon bo‘lishi kerakligi ko‘rsatib o‘tildi.

“Odil sudlov — 2030” strategiyasi aholining takliflari, olimlar, amaliyotchi yuristlar va advokatlar bilan muloqotlar, shuningdek, ilg‘or xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan. Strategiyada 57 ta vazifa, uni amalga oshirish bo‘yicha 2026-2028-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar dasturida 160 ta aniq chora-tadbir hamda 2030-yilga qadar erishilishi lozim bo‘lgan 33 ta maqsad belgilangan.

Jumladan, quyi sudlar qarorlarini qayta ko‘rib chiqish xolisligini oshirish maqsadida 2027-yil 1-iyuldan 5 ta hududlararo sud tashkil etiladi. Viloyat sudlarida apellyatsiya va kassatsiya instansiyalari saqlanib, taftish instansiyasining vakolatlari hududlararo sudlarga beriladi. Bu bir sudning o‘z qarorini o‘zi qayta ko‘rib chiqishi amaliyotiga chek qo‘yadi va fuqarolarning adolat izlab poytaxtga borish zaruratini kamaytiradi.

Kundalik hayotiy muammolarni hal etuvchi, odamlarning ishi ko‘proq tushadigan sudlar fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar ekanligini inobatga olib, ularni xalqqa yaqinlashtirish maqsadida 2030-yilga qadar zaruratga qarab qariyb barcha tuman va shaharlarda fuqarolik sudlarining faoliyati bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yiladi. Barcha sudlarda axborot olish, murojaat topshirish va raqamli xizmatlardan foydalanish “yagona darcha” tamoyili asosida ta‘minlanadi.

Sudga berilgan ariza boshqa sudga tegishli bo‘lsa, u fuqaroga qaytarilmaydi, sudning o‘zi uni tegishli sudga yuboradi. Arizada juz‘iy kamchilik aniqlangan taqdirda sud uni bartaraf etishda fuqaroga faol ko‘maklashadi.

Iqtisodiy nizolarni tezkor hal etish uchun “iqtisodiy ishlarni proaktiv boshqarish”

standarti joriy etiladi. Bu tadbirkorlarning idorama-idora sarson bo‘lishi va hujjatlarni qayta-qayta topshirishiga chek qo‘yadi.

Inson erki — oliy qadriyat ekanligidan kelib chiqib, tergov, surishtiruv bosqichida inson huquqlari kafolatlarini kuchaytirish uchun “asosli gumon” (prima facie) standarti joriy etiladi. Tergov sudyasi sanksiya berish masalasini ko‘rib chiqishda shaxsni ushlab turishning qonuniyligi, gumon yoki ayblov uchun asoslar yetarilgini tekshirish va zarur qo‘shimcha hujjatlarni talab qilish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa shaxsning erkinligi asossiz cheklanishining oldini oladi.

Yagona sud amaliyotini ta‘minlash maqsadida Oliy sud Rayosati qarorlarini qamrab oladigan ochiq “Pretsedentlar reyestri” yuritiladi.

Sudyalarni odil sudlovga daxldor bo‘lmagan tashkiliy vazifalardan ozod etish uchun 2028-yildan “sud ma‘murchiligi” instituti joriy etiladi.

“Raqamli sud” konsepsiyasi barcha sudlarda to‘laonli ishga tushirilib, my.sud.uz portali va uning mobil ilovasi takomillashtiriladi. Sudlarga murojaatlarning kamida 50 foizini elektron shaklda berish, sud majlislarining 100 foizini audioyozuv orqali qayd etish va Oliy sud axborot tizimlari foydalanuvchilarining sonini kamida 5 baravar oshirish rejalashtirilgan.

Shuningdek, mediatsiya va yarashuv mexanizmlarini kengaytirish, noqonuniy deb topilgan ma‘muriy hujjatlarining ochiq reyestri yuritishni qamrab olish, “xalq vakillari hay‘ati” ishtirokida ko‘riladigan jinoyat turlari sonini kamida 3 taga yetkazish maqsad qilingan.

Taqdimotda sud apparati xodimlari uchun maxsus xizmat kiyimi namunasi ham ko‘rib chiqildi. Bu fuqarolarga sud xodimlarini oson tanib olish, ularning kasbiy mas‘uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Uchrashuvda konstitutsiyaviy sud ishlarni yuritishni yanada takomillashtirish, sudyalarni hamjamiyati organlari faoliyati samaradorligini oshirish, sud mustaqilligini mustahkamlash hamda tizimdagi kadrlarning xorijda malakasini oshirish bo‘yicha takliflar ham ko‘rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari strategiya loyihasini ma‘qullab, unda nazarda tutilgan islohotlarni ro‘yobga chiqarishga qaratilgan tegishli farmonni imzoladi.

O‘za

Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!



MUSTAQILLIK: YANGI O‘ZBEKISTON KONSTITUTSIYASI VA INSON HUQUQLARI

“Bizning milliy mustaqilligimiz mard va matonatli xalqimizning qat‘iy irodasi, istiqlol yo‘lida kurashgan fidoyi ajdodlarimiz orzu-umidlarining ro‘yobi bo‘lib, Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaratilgan ezu ishlarimizning mustahkam asosi, kelajak avlodlarimiz uchun bezavol yetkazishimiz shart bo‘lgan buyuk va muqaddas qadriyatdir”. Bu fikrlar O‘zbekiston Prezidentining 2026-yil aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligini keng nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori muqaddimasida qayd etilgan. Qaror bilan “Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan g‘oyaviy-badiiy konsepsiya va dastur tasdiqlandi hamda shu negizda yurtimiz bo‘ylab eng ulug‘ va eng aziz bayramimiz tadbirlari o‘tkazilmoqda.

Konstitutsiya va O‘zbekistonning yagona xalqi

Istiqlol bayramining ushbu bosh g‘oyasi o‘z ma‘no-mazmuniga ko‘ra 2023-yil 30-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizning tub mohiyatiga batamom uyg‘un.

“Yagona xalq” — o‘zbek xalqi, O‘zbekiston xalqi. Istiqlol arafasidayoq ishlab chiqishga kirishilgan va 1992-yil 8-dekabrda mustaqil xalqimiz va suveren davlatimiz qabul qilgan Konstitutsiyamizda qayd etilganidek, “O‘zbekiston xalqini millatidan qat‘i nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi”.

Davomi 3-beta



Muqobil energiya

EKOLOGIK TOZA VA QAYTA TIKLANUVCHI MANBA

Taraqqiyot shiddatiga mos ravishda energetika tizimini modernizatsiya qilish, yangi quvvatlarni ishga tushirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanish borasidagi islohotlar elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmining ortib, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror energiya bilan ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda gidroenergetika tizimi alohida o‘rin tutadi. Suvning beqiyos kuchini elektr energiyasiga aylantirayotgan gidroelektr stansiyalari iqtisodiy samaradorligi barobarida atrof-muhitga zarari kamligi bilan ham katta ahamiyatga ega.

Davomi 4-beta



Yuksalish pallas

Mamlakatimizda eng ulug‘, eng aziz bayram — O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligini katta tantana bilan nishonlashimizga ham sanoqli kunlar qoldi. Istiqlol xalqimizga nafaqat o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini, balki o‘zligimizni qayta anglash, ko‘p asrlik qadriyatlar va ma‘naviy merosimizni tiklash, dunyo hamjamiyatida munosib o‘rin egallash imkonini ham bergan buyuk ne‘matdir.

XALQIMIZ TAQDIRINI O‘ZGARTIRGAN BUYUK NE‘MAT

Bugun yurtimizdagi keng ko‘lamli islohotlar, har bir sohada qo‘lga kiritilayotgan ulkan yutuqlar zamiyida ana shu muqaddas kuch — mustaqillikning qudrati mujassam. Vatan ravnaqi yo‘lida hayotga tatbiq etilayotgan har bir ezu tashabbus istiqlol ruhi bilan uyg‘unlashib, yangi O‘zbekistonning mustahkam poydevorini

yaratmoqda. Xususan, tarixan qisqa davr ichida ta‘lim tizimimiz uzoq va murakkab yo‘lni bosib o‘tdi. Eski markazlashgan yondashuvdan ochiqlik, kadrlar tayyorlash sifatini yuksaltirish, xalqaro hamkorlik va akademik raqobatbardoshlikka yo‘naltirilgan zamonaviy milliy tizimga o‘tdi.

Davomi 5-beta



Shukuh

MEHNAT VA FIDOYILIK E‘TIROFI

TADBIRKORLARNING KO‘KSINI FAXRGA TO‘LDIRDI



Avgust — yurtimiz tadbirkorlari uchun alohida ahamiyatga ega oy. Ishbilarmonlar 20-avgustda nishonlanadigan kasb bayramida davlatimiz rahbari bilan o‘tadigan ochiq muloqotni katta qiziqish va hayajon bilan kutadi. Bugun qaysi biznesmen bilan suhbatlashmang, fikr-u yodi ana shu uchrashuvda. Chunki mamlakatimiz hayotidagi eng muhim va kutilgan voqealardan biri — davlatimiz rahbarining yurtimiz tadbirkorlari bilan o‘tkazadigan oltinchi ochiq muloqotiga sanoqli kunlar qoldi. Uchrashuvga hozirlik esa avj pallaga kirgan.

Dunyo tajribasida o‘xshashi yo‘q ushbu o‘ziga xos ochiq muloqot mamlakatimiz rahbarining ishbilarmonlar bilan odatdagi uchrashuvi emas. Bu formatdagi muloqot tadbirkorlarning ovozi tinglanadigan, muammolar ochiq aytiladigan va ularning yechimi bo‘yicha aniq vazifalar belgilanadigan muhim maydonga aylanganini davrning o‘zi ko‘rsataypti. Shu bois, uchrashuv sanasi nafaqat ishbilarmonlar, balki yurtimizda tadbirkorlik muhitining yanada rivojlanishidan manfaatdor bo‘lgan barcha uchun alohida qiziqish bilan kutiladi.

Davomi 2-beta

Mulohaza



ILM JAMIYATDA YASHASHI KERAK 5



Akmal SAIDOV,
Inson huquqlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi Milliy
markazi direktori, akademik

Boshlanishi 1-betda

O'z navbatida, 2023-yil 30-aprelda referendum o'tkazish orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz "O'zbekistonning yagona xalqi" degan yanada haqoniy tushuncha bilan boyitildi. Ta'bir joiz bo'lsa, "yagona xalq" tushunchasining mazmun-mohiyatini Vatanimizda doimiy asosda yashab kelayotgan fuqarolar va barcha zamindosh insonlar tashkil etishiga oid real voqea Asosiy qonunimizning boshqa moddalarida izchil rivojlantirilgani har qanday tahsinga loyiq.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 23-moddasiga ko'ra "O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlaydi. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi O'zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emas. Davlat xorijda yashayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni saqlab qolish hamda rivojlantirish to'g'risida xalqaro huquq normalariga muvofiq g'amxo'rlik qiladi".

Shunday g'amxo'rlikka bitta amaliy misol. Gap shundaki, mamlakatimizda paxtachilikda bozor iqtisodiyoti tamoyillari joriy etilib, soha o'z egasining tasarrufiga berildi. Natijada o'qituvchi maktabga, shifokor shifoxonaga qaytdi, tadbirkorlar paxta "o'lponi"dan ozod bo'ldi, majburiy mehnat va bolalar mehnatiga chek qo'yildi.

Bugungi O'zbekiston — kechagi O'zbekiston emas, bugungi xalqimiz ham kechagi, ya'ni paxta dalasidan boshqa tashvishi bo'lmagan xalq emas. Bugun yangi O'zbekistonning davri, yagona O'zbekiston xalqining yangicha zamoni keldi.

Keyingi o'n yilda yangi O'zbekistonni barpo etishda Prezidentimiz tashabbusi, ya'ni "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak", degan insonparvar g'oyaga tayanilmoqda. Bunday g'oyaga demokratik yondashuv ham aynan xalqimiz manfaatlariga xizmat qilmoqda.

Mahalla — jamiyatning yuzi

Mamlakatimizdagi barcha o'zgarishlar, avvalo, mahallada o'z ifodasini topadi. Binobarin, O'zbekistonda shunday tizim yaratildiki, ilgari jiddiy deb hisoblangan ko'plab masalalarga yechim endi aynan mahallaning o'zida topilyapti.

Shu ma'noda, O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan mamlakatimizda 2026-yilning "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" deb e'lon qilingani bejiz emas. Zero, davlatimiz rahbari ishonch bilan qayd etganidek, mahalla tinch va ahil bo'lsa, jamiyatimiz tinch va hamjihat bo'ladi. Mahalla rivojlansa, butun mamlakatimiz yuksaladi.

Joriy yil davlat boshqaruvi, sud-huquq tizimi, iqtisodiyot tarmoqlari, ta'lim, ilm-fan, tibbiyot, madaniyat, sport, ekologiya tizimi — barcha-barcha sohani rivojlantirishda tub burilish yili sifatida ko'zga tashlanmoqda. Bu hayotiy haqiqatning tasdiqi uchun ayrim misollarni keltiramiz.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga asosan davlat zimmasiga yuklatilgan ijtimoiy majburiyatlarni bajarish hamda yurtimizda ijtimoiy davlat barpo etish borasida ham ulkan ishlar qilinmoqda. Xususan, konstitutsiyaviy islohotlar o'tkazilgan davrda mamlakatimizda kambag'allik darajasi 14 foiz edi. Bugun bu ko'rsatkich 5,8 foizga tushirildi. Vaholanki, mamlakatimizdagi yangi O'zbekiston islohotlari boshlangan davrda kambag'allik darajasi qariyb 35 foizni tashkil etardi. O'tgan davrda 8,5 million ehtiyojmand fuqaroning daromadini oshirish hisobiga bugun ana shunday muhim natijaga erishildi.

O'zbekistonda aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligi sezilarli darajada oshdi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil yakunlari bo'yicha bu ko'rsatkich 75,4 yoshni tashkil etgan. Istiqolning ilk davri — 1991-yilda esa mamlakatda o'rtacha umr ko'rish davomiyligi 66,4 yosh bo'lgan. Demak, o'tgan 35 yilda xalqimizning o'rtacha umr ko'rish darajasi naq to'qiz yilga uzayibdi.

Yana bir muhim raqam: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotiga qaraganda, 2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, O'zbekistonning doimiy aholisi soni 38 million 382 ming 685 kishini tashkil etgan. Joriy yil iyun oxirida e'lon qilingan ro'yxatga olish natijalariga ko'ra esa, yurtimiz aholisi 39 million nafardan oshgan. Ya'ni mamlakatimizda aholi soni 1989-yildagi ro'yxatga olish natijalariga nisbatan 2 barobar o'tgan. Bu raqam istiqol yillarida xalqimiz nufusi ikki karra ko'payganidan dalolat beradi.

Yangi O'zbekistonda turizm sohasi jadal rivojlanib, tarixiy rekordlarni yangilamoqda va yurtimizga bir oyning o'zida 1 million sayyoh kelishi odatiy holga aylanmoqda. Mamlakatimizga kelgan xorijlik sayyohlar soni 2025-yilda qariyb 12 millionga yetgani va joriy yilning birinchi yarmida 6,5 milliondan ortiqni tashkil etgani bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi.

Shu ma'noda, O'zbekistonda 35 yillik mustaqillik davrida qo'lga kiritilgan eng asosiy yutuqlar, avvalo, milliy davlatchilik asoslarini qurish, iqtisodiy suverenitet, infratuzilma mustaqilligi va global dunyoga integratsiyalashuv bilan bog'liqligi bejiz emas. Bunda, avvalo, davlatchilik va suverenitetni shakllantirish, rivojlantirish hamda mustahkamlash yo'nalishlarida qator muhim tarixiy natijalarga erishildi.

Bu haqda fikr yuritganda, O'zbekiston mustaqillik yillarida turli sohalarda erishgan bemiyl yutuqlarning aksariyati oxirgi o'n yilga to'g'ri kelishini alohida e'tirof etish kerak. Yangi O'zbekistondagi eng asosiy yutuqlar iqtisodiy erkinlik, xalqaro ochiqlik, davlat xizmatlarining raqamlashishi va ijtimoiy sohadagi tub burilishlar bilan chambarchas bog'liq.

Jahon siyosatining faol va tashabbuskor subyekti

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada har bir insonning o'z huquqlarini himoya qilish uchun milliy va xalqaro institutlarga murojaat qilish huquqi kafolatlandi. Konstitutsiyaviy shikoyat instituti konstitutsiyaviy darajada mustahkamlanib, fuqarolar Konstitutsiyaviy sudga bevosita murojaat qilish huquqiga ega bo'ldi. Jahon mamlakatlari orasida birinчилardan bo'lib inson huquqlari bo'yicha milliy institutlarning maqomi konstitutsiyaviy darajada ta'minlandi.

Yanada muhimi, so'nggi yillarda yangi O'zbekiston jahon siyosatining obyekti emas, balki tom ma'noda faol va tashabbuskor subyektiga aylandi. Zero, XX asr boshidan yaqin davrlargacha



shundaki, 1991-yildan 2016-yilgacha bor-yo'g'i 482 kishi O'zbekiston fuqaroligini olgan bo'lsa, 2017-yildan 2026-yilgacha 85 mingdan ortiq kishi O'zbekiston fuqaroligiga ega bo'ldi. Bu ko'rsatkich mamlakatimizdagi insonparvar siyosat jamiyatning hamma qatlamini qamrab olish va inson qadr-qimmatini tom ma'noda hurmat qilishga qaratilganini baralla namoyon etadi.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 15 ta rezolyutsiya qabul qilindi. Bu haqda so'z borganda BMT Bosh Assambleyasi 2026-yil iyulda Prezidentimiz tashabbusi bilan ilgari surilgan "Ijtimoiy rivojlanishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi rezolyutsiyani qabul qilgan.

qiluvchi o'ziga xos modelni aks ettiradigan "Markaziy Osiyo ruhi", "Yangi Markaziy Osiyo" atamali shakllandi.

Yangi O'zbekiston global masalalar muhokama qilinadigan xalqaro muloqot maydoni sifatida o'zini yaqqol namoyon etayotgani alohida tahsinga sazovor. BMTning teng huquqli va to'laqonli a'zosi sifatida O'zbekiston tenglik, hamkorlik, ko'p tomonlamalik va xalqaro siyosiy tizimni himoya qilish prinsiplariga so'zsiz amal qilishini namoyish etmoqda.

So'nggi vaqlarda xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, yangi global qurolli to'qnashuvlarning oldini olish, mamlakatlar o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish, global muloqot, global harakatlar va butun dunyoda

“Prezidentimiz tashabbusi asosida ishlab chiqilgan “Inson huquqlari — 2030” strategiyasi loyihasi keng jamoatchilik tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlangani bejiz emas. Bu — yangi O'zbekiston tarixida inson huquqlari bo'yicha ikkinchi Milliy strategiyadir.

Mazkur hujjatga dunyoning barcha mintaqasini ifodalovchi, BMTga a'zo 61 davlat hammuallif bo'ldi. Bu O'zbekistonning ijtimoiy rivojlanish, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va parlament diplomatiyasini

inson huquqlarini himoya qilish kabi g'oyalarni faol ilgari surmoqda.

Inson qadri ulug', huquqlari daxsiz

Yangi O'zbekistonda "Inson qadri uchun" degan insonparvar g'oya davlat siyosatining bosh mezon sifatida qaror topdi. Endi har bir qonun, qaror va dastur, avvalo, inson manfaatiga xizmat qilishi, uning huquq va erkinliklarini ta'minlashi, munosib hayot sharoitini yaratishi lozim.

O'z navbatida, inson huquqlari zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyoti darajasini ko'rsatib turuvchi mezonidir. Afsuski, dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar, geosiyosiy o'zgarishlar va qurolli mojarolar inson huquqlari masalalariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Hech kimning unutishga haqqi yo'q — qonun talablari va inson huquqlari — biz uchun oliy qadriyat". Yangi O'zbekistonni barpo etish bilan bog'liq yangicha islohotlar sharoitida "inson, uning huquqlari, erkinliklari, ayniqsa, qadri — eng muhim qadriyat" degan tamoyil e'tirof etilmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi asosida ishlab chiqilgan "Inson huquqlari — 2030" strategiyasi loyihasi keng jamoatchilik tomonidan qizg'in qo'llab-quvvatlangani bejiz emas.

Bu — yangi O'zbekiston tarixida inson huquqlari bo'yicha ikkinchi Milliy strategiyadir. "Inson huquqlari — 2030" strategiyasi loyihasi 12 bobdan iborat. Unda:

- Yangi O'zbekistonda inson huquqlarining joriy holat tavsifi;
- Strategiyaning maqsad va vazifalari;
- Inson huquqlari strategiyasini amalga oshirishning asosiy prinsiplari;
- Inson huquqlari strategiyasini amalga oshirish mexanizmlari bo'yicha chora-tadbirlar dasturi;
- Strategiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar;

— Strategiyani amalga oshirishni monitoring qilish va hisobot berish tartibi;

— Strategiyani amalga oshirishning moliyaviy va resurs ta'minoti;

— Strategiyani amalga oshirish samaradorligini baholash mexanizmi kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

Muhimi, "Inson huquqlari — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi 4 ustuvor yo'nalishdan iborat "natija" ko'rsatkichlari va "bevosita faoliyat natijasi" ko'rsatkichlarini qamrab olgan. Bu o'rinda:

birinchidan, inson huquqlari sohasida milliy qonunchilikni takomillashtirish; ikkinchidan, aholining ehtiyojmand toifalari huquqlarini himoya qilish hamda inklyuziv va ijtimoiy adolati jamiyatni shakllantirish; uchinchidan, inson huquqlari madaniyatini yuksaltirish va inson huquqlari sohasidagi ta'lim tizimini rivojlantirish;

to'rtinchidan, O'zbekistonning inson huquqlari sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va xalqaro majburiyatlar ijrosini ta'minlashdan iborat ustuvor yo'nalishlar haqida so'z bormoqda.

Shunday qilib, "Inson huquqlari — 2030" strategiyasi tasdiqlangach, unda belgilangan ustuvor yo'nalishlar ijrosining to'liq hamda o'z vaqtida ta'minlanishi, shubhasiz, yangi O'zbekistonda inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Uchinchi Renessans — strategik vazifamiz

So'nggi yillarda mamlakatimiz, mintaqamiz, butun sayyoramiz miqyosida tinchlikni saqlash, o'zaro ishonchni mustahkamlash, ma'naviyat va ma'rifatni rivojlantirish, ekologiyani muhofaza qilish, shuningdek, ilg'or innovatsiyalar, zamonaviy texnologiyalar va "yashil



iqtisodiyot"ni chuqur tatbiq etish orqali barqaror taraqqiyotni ta'minlash yo'lida tom ma'noda bemiyl samaralarga erishilmoqda. Ushbu natijalarning barchasi inson qadriini ulug'lashga qaratilgani bilan nihoyatda ahamiyatli.

Mamlakatimiz 2028-yilda ilk ilmiy sun'iy yo'ldoshini fazoga uchirishni rejalashtirmoqda. Mazkur loyihaning Mirzo Ulug'bek nomi bilan atalishi va nafaqat kosmik texnologiyalarni rivojlantirish, balki milliy-ilmiy maktabni

shakllantirish va yosh mutaxassislarni tayyorlashga ham xizmat qilishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekistonimizning birinchi milliy kosmonavtini qisqa muddatli kosmik parvozga tayyorlash ishlari ham boshlanib ketdi.

Vatanimiz, xalqimiz, millatimiz namoyandalari yuksaklarga parvoz qilish haqida, fazo va koinot, yulduzlar va sayyoralar kashfi xususida anchadan buyon o'ylamay va intilmay, ta'bir joiz bo'lsa, orzu ham qilmay qo'ygandi, nazarimda. Bu o'rinda, avvalo, shoh va olim bobomiz Mirzo Ulug'bek hazratlari zamonasi nazarda tutilmoqda.

Istiqolning 35 yilligi katta bayram qilinayotgan joriy yilda Sohibqiron Amir Temur, Mir Alisher Navoiy bobolarimizning qutlug' tavallud ayyomlari ham keng nishonlangani zamirida o'ziga xos ramziy ma'no mujassam. Zero, ulug' alloma ajdodimiz Abu Rayhon Beruniyning "Vaqt pillapoyasi cheksizdir, bir-birining o'rmini egallab boradigan avlodlar zinadan zinagacha ko'tariladilar, xolos. Jamlangan tajribani har bir avlod o'zidan keyin kelayotgan, o'zidan keyin uni taraqqiy ettiradigan va boyitadigan navbatdagi avlodga yetkazib beradi", degan purhikmat fikrlari bor. Bu bebaho fikrlarni izchil rivojlantirish asosida Birinchi va Ikkinchi Sharq Uyg'onish davri — ana shu ikki Renessans tom ma'noda insoniyat taraqqiyotining oltin pillapoyalari sifatida tarix sahifalariga muhrlangan.

Sharqning butun insoniyat tarixidagi nodir ijtimoiy hodisa bo'lgan har ikki Renessansi buyuk ajdodlarimizning ilm-ma'rifat va kuchli e'tiqod, diniy bag'rikenglik va insonparvarlik borasidagi ezgu g'oyalari bilan yo'g'rilgan edi. Bu g'oyalar O'zbekiston mustaqilligi yillarida alohida, yanada teran ma'no-mazmun kasb etib bormoqda.

Mamlakatimizda Uchinchi Renessansni XX asrda ma'rifatparvar jadidlar amalga oshirishi mumkin edi. Bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrini milliy uyg'onish g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish,

millatimizni g'afat botqoq'idan qutqarish uchun bor kuch va insoniyatlarini safarbar etgan. Shukrki, Prezidentimiz tashabbusi bilan yangi O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad etib belgilandi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz".



Muqobil energiya



O'tgan davrda Surxondaryo viloyatidagi 8320 ta ijtimoiy soha obyekti, tadbirkorlik subyektlari va aholi xonadonlariga umumiy quvvati 110,4 megavatt bo'lgan quyosh panellari o'rnatildi. Bu orqali 298,2 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarilmoqda.

Ekologik toza energiya manbalarini rivojlantirish, yangi quvvatlarni ishga tushirish aholi va korxonalarning elektr energiyasiga ehtiyojini barqaror ta'minlashda juda muhim.



ZARCHOB-2 GESI



Boshlanishi 1-betda

Jumladan, Surxondaryodagi gidroelektr stansiyalari viloyatning energetika salohiyatini yanada mustahkamlash, aholini barqaror elektr energiyasi bilan ta'minlash va iqtisodiy rivojlanishga munosib hissa qo'shmoqda. Xususan, viloyat shimolidagi yirik energetika obyektlaridan biri bo'lgan "To'palang" gidroelektr stansiyasi tubdan modernizatsiya qilindi. 2023-yili yangi gidroagregatlar ishga tushirilishi tufayli stansiyaning ishlab chiqarish quvvati qariyb 7,2 barobar oshdi. Yangi quvvatlar ishga tushirilishi natijasida esa bir kaskadda joylashgan o'rta gidroelektr stansiyasining umumiy ishlab chiqarish quvvati 276 megavattga yetdi.

Davlatimiz rahbarining 2025-yil 28-martdagi "Respublika hududlarida mikro gidroelektr stansiyalari tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori mamlakatdagi energetika sohasini yanada takomillashtirish va rivojlantirish yo'lida muhim bosqich bo'ldi. Mazkur qarorda mikro gidroelektr stansiyalarini qurish va faoliyatini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilanib, sohadagi ishlar miqyosini sezilarli darajada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Qarorga muvofiq 2025-2026-yillarda Surxondaryo viloyatida umumiy quvvati 9,288 kilovatt bo'lgan mikro gidroelektr stansiyalarini barpo etish va ishga tushirish rejalashtirilgan. Hozir esa mikro gidroelektr stansiyalari bosqichma-bosqich foydalanishga topshirilmoqda.

"Zarchob-3" mikro GESi hududdagi istiqbolli energetika loyihalaridan. Quvvati 230 kilovattni tashkil etuvchi mazkur inshootda bugun qurilish-montaj ishlari to'liq yakunlangan. Ayni paytda mikro GESning asosiy uskunalari mexanik sinovlardan muvaffaqiyatli o'tkazilib, obyektni ishga tushirish oldidan muhim bosqich bo'lgan 72 soatli sinov rejimi amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayon ham stansiyada barcha tizim va agregatlarining ishonchli hamda barqaror ishlashini tekshirish imkonini beradi.

— To'palangdaryosida qurilgan "Zarchob-3" kichik gidroelektr stansiyasi Surxondaryo viloyatining gidroenergetika salohiyatini oshirishga xizmat qilayotgan muhim loyiha. Quvvati soatiga 16 megavattni tashkil etuvchi mazkur inshoot mahalliy suv resurslaridan samarali foydalangan holda ekologik toza elektr energiyasi ishlab chiqarishga mo'ljallangan, — deydi "Zarchob-3" mikro GESi muhandisi Shahboz Safarov.

Ekologik toza energiya manbalarini rivojlantirish, yangi quvvatlarni ishga tushirish aholi va korxonalarning elektr energiyasiga ehtiyojini barqaror ta'minlashda juda muhim.

So'nggi yillarda viloyatning boshqa qator hududlarida ham "To'palang" GES tarkibida mikro GESlar barpo etilmoqda. Ana shunday kichik loyihalardan biri Qumqo'rg'on tumani hududida joylashgan va u mahalliy aholini ekologik toza hamda barqaror elektr energiyasi bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

— Qumqo'rg'on tumanida qurilgan kichik mikro GES suv resurslaridan samarali foydalanish asosida elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Bu esa bir tomondan energetika tizimi quvvatini oshirsa, ikkinchi tomondan qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish imkonini beradi, — deydi



Bu kabi loyihalar energetika tizimini mustahkamlash bilan birga hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ham yangicha sur'at bag'ishlaydi. Ayniqsa, keyingi yillarda energetika sohasidagi o'zgarishlar mahalliy aholi hayotida ham o'z aksini topmoqda.

"O'zbekgidroenergo" AJ "To'palang" GES filiali elektromexanika bo'limi boshlig'i Akmal Hayitov.

Jarqo'rg'on tumani Surxondaryo viloyatining janubiy qismida joylashgan bo'lib, asosan pasttekislik sifatida tavsiflanadi. Geografik

joylashuviga ko'ra, bu yerda tabiiy ravishda yuqori suv bosimi mavjud emas. Shuningdek, ko'p hollarda gidroelektr stansiyalari qurishda zarur bo'lgan balandlik farqi, ya'ni gravitatsiya bosimi yetarli darajada bo'lmaydi.

Shunga qaramay, ushbu hududda suv oqimi tezligi yuqori bo'lgan kanallar mavjud. Ana shu gidrologik imkoniyatlardan samarali foydalangan holda suv bosimisi, faqat uning oqimi tezligiga asoslangan mikro gidroelektr stansiyalari qurildi.

Amu Zang kanali yoqasida joylashgan "Jarqo'rg'on" mikro GESi ana shu loyihalardan bo'lib, suv oqimining tabiiy harakatini



energiya manbaiga aylantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanilgan.

— Tumandan oqib o'tuvchi ushbu kanalning O'zbekiston mahallasi hududidagi qismida 2025-yil boshida "To'palang" tarkibidagi "Jarqo'rg'on" mikro GESi qurilib,

foydalanishga topshirildi. Mikro gidroelektr stansiyasining ishga tushirilishi ortidan mahallaning elektr ta'minotidagi barqarorligi yanada mustahkamlandi. Ayniqsa, avvallari tez-tez kuzatilgan tok uzilishlari to'xtadi. Bu esa aholining maishiy texnika va yoritish vositalaridan foydalanishida katta qulaylik yaratdi. Shu bilan birga, yilning mavsumiy yuklama yuqori bo'ladigan davrida ham ta'minot barqarorligi saqlanishiga imkoniyat yaratdi, — deydi "O'zbekiston" MFY faoli Mengli Aliqulov.

Kelgusida ham Surxondaryoning gidroenergetika salohiyatidan samarali foydalanish, yangi mikro GESlarni barpo etish

chiqarilayotgan ortiqcha elektr energiyasi umumiy tarmoqqa sotilib, universitet uchun qo'shimcha moliyaviy manba yaratildi.

— Uzoqqa bormaylik, bundan atigi 10 yil avval ham universitetimiz elektr energiyasidan katta miqdorda qarzidor bo'lib, tok manbaidan uzib tashlanardi. Auditoriyalar qorong'i, zamonaviy laboratoriya va texnik uskunalar talabalar uchun xizmat qilmadi. Bugun universitetimiz o'z kampusini elektr energiyasi bilan to'liq ta'minlash barobarida ortganini sotib, foyda ham ko'ryapti, — deydi Termiz davlat universiteti bosh energetigi Latif To'raqulov.

Yurtimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va aholini "yashil energiya" texnologiyalarini joriy etishga rag'batlantirish maqsadida qator imtiyoz va yengilliklar yaratilgan. Xususan, quyosh panellarini o'rnatib, ulardan samarali foydalanayotgan fuqarolar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanmoqda.

— Universitetimizda xodimlarni qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga rag'batlantirish maqsadida qulay mexanizm yo'lga qo'yildi. Unga ko'ra, universitet xodimlariga ssuda shaklida imtiyozli qarz mablag'i ajratilib, xonadoniga quyosh panellari o'rnatilayotgan, — deydi Termiz davlat universiteti prorektori Alisher Shaydullayev.

Bugun iqtisodiyotning globalashuv jarayoni ilm-fan, innovatsiya va zamonaviy texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, iqtidorli va tashabbuskor yoshlarning ilmiy salohiyatini ro'yobga chiqarish hamda qo'llab-quvvatlash ustuvor vazifalardan. Xususan, professor-o'qituvchilar tomonidan ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish, talabalarning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, fizika va matematika yo'nalishida faoliyat yuritayotgan assistent, mustaqil tadqiqotchi hamda iqtidorli talabalar ishtirokida ilmiy tadqiqot ishlari keng yo'lga qo'yilgan.

Oliy ta'lim muassasasida ilmiy-innovatsion ishlarnalarga katta e'tibor qaratilayotgani ham alohida ahamiyatga ega. E'tiborlisi, bugun universitet yoshlari energiya tejamlorligi va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishga qaratilgan innovatsion loyihalar ustida ilmiy tadqiqotlar o'tkazmoqda. Jumladan, fizika-matematika fakulteti talabasi Botir Yo'ldoshev bugun qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishga qaratilgan innovatsion loyiha ustida ishlamoqda.

Yosh tadqiqotchi quyosh panellari asosida ishlovchi suv tejoyvchi qurilma yaratish orqali qishloq xo'jaligida suv resurslaridan oqilona foydalanish masalasiga yechim topishni maqsad qilgan.

— Biz taqdim etayotgan mazkur qurilma sug'orish imkoniyatlarini cheklangan hududlardagi issiqxonalarda qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan yuqori hosil olishga xizmat qilishi mumkin. Loyiha suv sarfini kamaytirish, energiya tejamlorligini ta'minlash va ekologik barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan, — deydi Termiz davlat universiteti talabasi Botir Yo'ldoshev.

Elektr energiyasi barqarorligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalar, ko'riylayotgan ta'sirchan choralar mamlakatimizning iqtisodiy barqarorligi, aholi farovonligiga xizmat qiladi. Zero, tabiiy xazinalar kamayib, talab esa karrasiga oshib borayotgan bir sharoitda iqtisodiy taraqqiyotni maqsad qilgan har qanday davlat uchun eng maqbul yo'l — "yashil" energetika. Shu bois, yurtimizda muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish imkoniyati juda katta. Demak, bu borada boshlangan ishlar ko'lami yanada kengayib, samaradorligi ortaveradi.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Bugunning gapi



Qoraqalpog'istonning Beruniy tumani Turon mahallasida 5570 kishi istiqomat qiladi. Mahallaning asosiy drayveri — chorvachilik va dehqonchilik. Shu bois, turonlik yoshlar sabzavot va poliz ekinlari ekib, o'lasiga mo'ay daromad keltirish bilan birga ichki bozorda qishloq xo'jaligi mahsulotlarining arzon bo'lishiga ham hissa qo'shmoqda.

— Davlatimiz rahbarining 2024-yil 5-apreldagi "Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan tumanimizdagi 600 dan ortiq yoshga 30 sotixdan 1 gektargacha yer ajratilib, bandligi ta'minlangan, — deydi Xalq deputatlari Beruniy tumani kengashi kotibiyati mudiri Mahmud Qodirov. — Xususan, Turon mahallasidagi 30 yoshga 30 sotixdan yer berilib, hozir bu yerlarda poliz mahsulotlari va qovun yetishtirilmoqda. Har bir qarich yerdan unumli foydalanishga intilgan yoshlar tajribali tomorqachilar bilan mustamaz maslahatlashib, fikr almashib turadi. Berilayotgan imkoniyat va

imtiyozlar hududlarning yangi qiyofaga kirishi, murojaatlarning mahallada hal etilishi, bir so'z bilan aytganda, mahallaning tom ma'noda xalqimizning birdamligini ta'minlaydigan o'zini o'zi boshqarish tizimiga aylanishiga xizmat qilmoqda.

Tumanning Lolazor mahallasidagi 6000 fuqaroning 1500 nafarini yoshlar tashkil etadi. Yuqoridagi qarorga ko'ra, ularning 15 nafariga 30 yillik ijara shartnomasi asosida 30 sotixdan yer ajratib berilgan. Bu yerlarga sabzavot va poliz mahsulotlari ekan yoshlar yil oxirigacha yaxshigina daromadli bo'ladi.

Tomorqadan samarali foydalanish bo'yicha tumanning o'z tajriba maktabi bor. Masalan, Palvash mahallasida yashovchi Madiyov

YER AJRATISH ORQALI YOSHLAR BANDLIGI TA'MINLANMOQDA

Seytnazarov uyi atrofidagi 56 sotix tomorqasida qo'shimcha archa, xrizantema, shafraon va bir qancha gul ko'chatlari urug'ini yetishtirishni yo'lga qo'ygan. 6 yil oldin boshlangan ish bugun oilaviy biznesga aylangan.

— Bir ko'chat 2 yilda ekish uchun to'liq yetiladi. Oldinlari urug'ini Farg'o viloyatidan olib kelgan bo'lsam, endi urug'chilikni tomorqamda yo'lga qo'yganiman. Hozir kuz mavsumida ekish uchun 3000 tup nihol tayyor holatga kelgan. Buyurtma asosida qo'shni tumanlarga ham ko'chat yetkazib berishni yo'lga

qo'nganman, — deydi Madiyov Seytnazarov. — Maqsadim aholida tabiatni asrash, o'z uyi oldida yashil maydon yaratishga qiziqish uyg'otish.

Agrotexnik tadbirlar o'z vaqtida bajarilsa, ko'chatlar turli kasalliklarga chal olmaydi. Bu bo'yicha Madiyov tomorqachida tajriba yetarli. Mavsum davomida 10 shunchagacha mavsumiy ishchi ishlatadi. Bu nafaqa odamning oilasiga daromad kirdi degani. Yaxshi yetishtirilgan har bir tup ko'chat 30-40 ming so'mdan sotiladi.

Mahallada aholining har bir qarich yerdan unumli foydalanish va daromad olish borasidagi

tajribasi yuqori. Bu esa hududning og'ir mahalla toifasidan chiqishi, drayver loyihalarining o'z vaqtida amalga oshirilishi, aholi bandligi ta'minlanishi, daromadlarning ko'payishiga yordam bermoqda.

Tikuvchilik hunarini onasidan o'rganib, endi ko'plab shogirdlarga ustozlik qilayotgan Zulfiya Reyimboyeva tumanning Xorazm mahallasida istiqomat qiladi. Tikuvchilik uchun zarur tikuv mashinalarini "mahalla yetitiligi" yordami bilan imtiyozli kredit asosida sotib oldi. Hozir "Hunarmand" uyushmasi tomonidan "ustoz-



shogird" tizimi asosidagi subsidiyaga ega bo'lib, qizlarga hunar o'rgatib kelmoqda. Zamonaviy liboslar, to'y sarpolari, shuningdek, quroq ko'rpa va ko'rpachalarni maromiga yetkazib tikishni yo'lga qo'ygan. Hunarning foydasini bilgan Zulfiya bu borada yangi loyihalarni yo'lga qo'yib, ishini yanada kengaytirmoqchi.

Tumandagi qariyb 500 gektar yerda sun'iy ko'llar tashkil etilib, auksionda 49 yilga ijara shartnomasi asosida tadbirkorlarga sotilishi rejalashtirilgan. Baliqchilik yo'nalishini yanada rivojlantirish, aholining iste'mol talabidan kelib chiqqan holda ichki bozorga arzon baliq yetkazib berish maqsad qilingan.

— Tumanimizda tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagidagi yoshlarga har tomonlama yordam berib kelinmoqda, — deydi tuman hokimi o'rinbosari Davronbek Karimov. — Masalan, baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish uchun "Oltinsoy" ovul fuqarolar yig'ini hududida sun'iy ko'llar tashkil etilgan. Sohaga yoshlarni qiziqitirish uchun sun'iy ko'llar havzalariga biznes sayohatlar tashkil etyapmiz.

Beruniy tumandagi ko'plab yigit-qizlar kasb-hunar o'rganib, o'z tadbirkorligini boshlayotgan bo'lsa, chorva va dehqonchilikka moslashgan hududlarda ilmiy yondashuv asosida an'anaviy maktab tajribasi qo'l kelmoqda.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

